



JADIDCHILIKNING YURTIMIZ TARIXIDAGI O'RNINI

Nasullayeva Navbahor
O'ZDJTU 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Yurtimiz tarixiga nazar.

Kalit so'z: Jadidchilik, xalq, dunyoqarash, ziyolilar.

Albatta, bu so'zni eshitishimiz bilan ko'z o'ngimizda buyuk siymolarimiz gavdalanadi. Chunki jadidchilik yurtimiz tarixidagi ma'lum bir davrni o'z ichiga qamrab oladi.

Jadidchilik bu nima?

Jadidchilik bu xalqni ma'naviyatli qilish, insonlarning dunyoqarashini rivojlantirib, yangiliklarga intilish, izlanish, o'zida bo'lgan mustaqillik va ishonch tuyg'ularini yuksaltirish va xalqni ziyoli qilib, mustamlaka bo'lmaslik faoliyati.

Bilamizki, barcha narsaning tub zamirida ilm yotadi. Jadid bo'lish uchun ham bilimli, dunyoqarashi keng, zamonaviy fikr yuritadigan, boshqalarga to'g'ri yo'lni ko'rsata bera oladigan bo'lishi kerak. Bizning o'lakamizda esa bunday vatanparvar daholarimiz ko'p bo'lgan. O'sha paytda ilk jadid maktabi 1884-yilda Ismoil G'aspirali tomonidan ochilgan. Bu maktabda buyuk jadid tomonidan yozilgan darsliklar asosida savod chiqarilgan. Bizning o'lkamizda ilk jadid maktabi 1893-yil Buxoroda "Muzaffariya" nomi bilan ochilgan. Undan so'ng birqancha hududlarda xususan, Andijon, Qo'qon, Toshkent va Samarqandda jadid maktablari ochilgan.

O'z davrining jonkuyar, hassos jadidlari ushbu maktablar uchun darsliklar yaratadi. Jadidlar bu orqali yoshlarga diniy va dunyoviy bilim, ko'nikmalarni yetkazib berishga harakat qilgan. Qaysiki insonning yuragida vatanga muhabbat, oilaga hurmat va kelajakka ishonch, umid bo'lsa, u hech qachon sukut qilmaydi.

Bizning ajdodlarimiz ham mana shunday erksevarlik, vatanparvarlik tuyg'ularini o'zida jo qilgan shaxslardan bo'lishgan. Shunday ekan biz ham ularga munosib avlod bo'laylik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <http://arxiv.uz>

2. [http://E-mail:nasullaevnozim74@gmail.com](mailto:mailto:nasullaevnozim74@gmail.com)